

DEVIANT XULQ-ATVORLI BOLALAR BUGUNGI KUNNING ENG DOLZARB MUAMMOSI SIFATIDA

Xakimova Sarvinoz Sharifjon qizi

FarDU pedagogika -psixologiya talabasi.

Electron pochta manzili:sarvinozhakimova122@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola deviant xulq-atvorli bolalarning ruhiy holatlariga pedagogik usul va medodlar orqali yordam ko'rsatis, bundan tashqari deviant xulq-atvor shakllarining o'ziga xos sabablari va pedagogik, ruhiy profilaktikasi yoritib berilgan.

ANNOTATION

This article provides support for the mental states of children with deviant

Behavior through pedagogical methods and methods, as well as specific causes of deviant behavior and pedagogical and psychological prevention.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена поддержка психических состояний детей с девиантным поведением с помощью педагогических приемов и методов, а также конкретных причин девиантного поведения и педагогико -психологической профилактики.

Kalit so'zlar: Shaxs, deviant xulq, oila, jinoyatchilik, giyohvandlik, byurokratiya, konkubinat, pedagogik profilaktika.

Jamiyatda insonlar faoliyati, xatti-harakatlari va xulq-atvorlarini ijtimoiy me'yorlar boshqaradi. Ijtimoiy me'yor jamiyat boshqaruving ajralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy xulq guruh xulq -atvorini muayyan sotsial muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir.Jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yordan chetga chiqqan holatlarini o'rganuvchi deviant xulq-atvor sotsialogiyasi muammolari O'zbekistonda istiqlol sharofati bilan o'rganila boshladi.Ma'lumki deviant xulq-atvor nazariyasiga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas.Turli sotsiologik, pedagogik, psixologik vas hu yondashuvar bilan bir qatorda biologic yondashuv ham takomillashib bormoqda. Deviant xulq ayniqsa voyaga yetmaganlar uchun xos hususiyat hisoblanadi.Ushbu davrda voyaga yetmagan yoshlarning shaxsuy xislatlari shakllanadi.Boladagi dunyoga nazar shaxsiy fikrlar og'ushida mujassamlashib boradi.Biroq shaxsning shakllanishi va rivojlanishi murakkab jarayon bo'lib o'ziga xos qiyinchliklarni yuzaga keltiradi.Deviant xatti-harakatli (xulqi og'ishgan) bolalar har qanday harakatlarni nihoyasini o'ylab o'ylamay amalga oshiradilar.Ular o'zlarini boshqara olmaydilar. Jamiyatda bunday insonlar ko'plab uchrab turibdi.

Quyidagilar deviant xulq-atvorning nisbatan kengroq tarqalgan ko'rinishlaridan hisoblanadi:

- 1.Jinoyatchilik;
- 2.Ichkilikbozlik;
- 3.Giyohvandlik;
- 4.Fohishabozlik;

kabi turlari jamiyat hayotini bulg'ashga xizmat qiladi.

Jinoyatchilik.Muayyan davlatda o'rnatilgan qonun va me'yorlarga nisbatan ayrim shaxslarning salbiy munosabati jinoiy faoliyatidir.Bunday ishlarni amalga oshirgan shaxs esa jinoyatchi hisoblanadi.Buning zamirida ham inson manfaati turadi.Jinoyatchilik dunyoning barcha mamalakatlarida ijtimoiy tashvish uyg'otmoqda, chunki bu jamiyat hayotini ham xavf ostida qoldiradi.

Alkogolizm (lot alcoholismus) ya'ni ichkilikbozlik ham jamiyat hayotida ko'plab muammolarga sababchi bo'lad. Bunda inson surunkali psixik progradient kasalligiga uchraydi, ya'ni alkogolga ruju qo'yish va unga aqliy va jismoniy jihatdan qaram bo'lish bilan tavsiflanadi.

Giyohvandlik. narkomaniya, bangilik -narkotik moddalarga o'rganib qolish, ruju qo'yish, aniqrog'I tabiiy yoki sintetik zaharli moddalar (ayrim dori vositalari) ga vaqtincha yoki surunkasiga iste'mol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallik holati.

Foxishalik- pul yoki boshqa foyda evaziga jinsiy aloqa qilish. Foxishalik asosan ayollar orasida uchraydi va ikki turga bo'linadi:

- 1.Konkubinat- nikohsiz birga yashash.
- 2.Foxishabozlik- pul uchun o'z tanasini sotish.

Deviant xulq-atvor muammosini sotsiologiya fani doirasida dastlab E.Dyurkgeym mahsus o'rgangan bo'lsada, bu muammo Qadim davrlardan shakllanib kelgan.E.Dyurkgeym fanga o'zi kiritgan "Anomaniya" atamasi orqali qonunchilikni, qonunlarni tan olmaslikni va ularga amal qimaslikni tushuntiradi.

Ijtimoiy me'yorlar va ulardan chekinish muammosini yanada chuqurroq tahlil qilishda: Manteske, Russo, Bekkorio, Gelvetsey, Didro, Golbaks, Morelli va Furelarning o'rinnari beqiyos. Shaxslarda yuz beruvchi deviant holatlarlarning paydo bo'lishi va shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan 3ta omilni ko'rsatish mumkin:

- 1.Shahs xususiyatlari;
- 2.Muammoli holatlar;
- 3.Ijtimoiy nazorat instituti;

Aynan mana shu omillar shaxsning jamiyatdagi o'rnini va qanday faoliyat yuritishini belgilab beradi.Ijtimoiy og'ishlarning yuz berishiga shaxsning qat'iya yoki

qatiyatsizligi , qoidalarga bo'ysunish yoki bo'ysunmaslik odatlari, tashqi ta'sirga qanchalik berilishi , irodasi va boshqa shu kabi psixofiziologik holatlari ham katta ta'sir ko'rsatadi.

O'smirlik yoshida deviatsiya namoyon bo'lishining tinimsiz oshib borishi yuz beradi. Bu yoshda o'smir qiz yoki yigit bo'lishidan qat'iy nazar o'ta ta'sirchan, bazilar o'ta odamovi,jirraki bo'lib q aladilar. Bu ma'lum bir qiyinchliklar davri hisoblanadi. Oilada avvalo muhit birinchi navbatda o'smirga ta'sir ko'rsatadi. Ota onalar uchun ham bu davr o'z navbatida sinovlarga to'la bo'lish holatlari kuzatilmoqda. Bundan tashqari o'quv maskanida hizmat qilayotgan pedagog, psixologlar zimmasiga ham og'ir yuk tushadi.Bunda pedagog-psixolog o'smirning holatini namoyon qilishda turli metod va usullardan foydalanishi o'rinnlidir.Ijtimoiy pedagogning dezadaptatsiya bo'lgan o'smirlar bilan ishlashining yana bir texnologiyasi ularning realibilitatsiyasi hisoblanadi. Realibilitatsiyaga keng turdagи vazifalar va oddiy ko'nikmalardan tortib, insonning jamiyatda to'liq integratsiyalashuvigacha bo'lgan masalalarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi sifatida qaralishi mumkin. Realibilitatsiya obyektlariga quyidagilar kiradi.Bular:

1.Ijtimoiy va pedagogik qarovsiz bolalar.

2.Voyaga yetmagan huquqbuzarlar,yetim bolalar,xulq-atvorida chetga og'ish bo'lgan o'smirlar.

Hozirgi kunda jamiyatdagi yetimlikni ikki tushuncha orqali ajratib olish mumkin:

1.Yetim (hech kimi yo'qlik), ijtimoiy yetim(jamiyat hayotida ota - ona yoki yaqin insonlarining roli yo'qligi).

3.Psixosomatik va nerv-psixologik sog'ligi buzilgan va funksional og'ishlarga ega bolalar:

-asab -ruhiy xastaliklar;

-surunkali somatik kasalliklar;

-aqliy qoloqlik;

-nogironlik;

-funksional buzilishlar.

Bu toifadagi bolalar birinchi navbatda tibbiy va ruxiy reabilitatsiyaga extiyoj sezadilar. Ularning subyektlari shifokorlar va psixologlardir. Bular hamkorlikda ish olib borib, har tomonlama muammoni ochishlari mumkin. Bundan tashqari yordamga pedagoglarni chaqirib, kompleks dasturlar ishlab chiqarishlari maqsqdga muofiq bo'ladi. Deviant xulq-atvorga ega o'smirlar bilan ishlashning relibilitatsiya dasturlarini tuzishda quyidagilar inobatga olinadi:

1.Voyaga yetmagan bolaning ijobjiy tomonlariga suyanish va inobatga olish.Ijtimoiy pedagog deviant xulqli bolani qoralashga yoki ayblarini yuziga oshkor qilishga haqli emas.Faqatgina yaxshi hislatlarini qidirishi kerak.

2.Deviant xulq -atvorli bolada hayotiy intilishlarni shakllantirish. Odatda məktəbda yoki hayotda surunkali muoffaqiyatsizliklardan so'ng o'smirlar umidsizlikka tushadilar. Ularda o'ziga ishonch yo'qoladi. Bu holatdan so'ng o'smirda kasbiy o'z – o'zini anglashga intilish susayadi. Ijtimoiy pedagogning e'tibori uning kelajakdagi kasbini anglashga qaratiladi.Albatta psixolog ko'magi bilan.

3.Deviant xulqli bolalar uchun ahamiyatli bo'lgan ijtimoiy faoliyatga jalg qilish, bu murakkab vazifalardan biridir. Chunki bu kabi bolani qaysidur mashg'ulotga jalg qilish o'ta mushkul. Ular avvalambor har qanday ishga qarshilik qilishlari tabiiy. bu kabi harakat pedagog yoki psixologdan katta mashaqqat talab qiladi.

4.O'smir bilan o'zaro munosabatlarga hurmat bilan qarash. Dezadaptatsiya bo'lgan bolalarda yaxshi muomalaning yo'qligi sababli har qanday tarbiyaviy ta'sir voyaga yetmagan bola tomonidan qattiq qarshilikka duch keladi. Bunday bola bilan ish olib borish ijtimoiy pedagogdan sabr-matonat talab qiladi.

Pedagog har tomonlama yondashish orqali deviant xulq-atvorli bolada ko'nikma va moslashish hosil qiladi.Shu yo'l orqali o'smirda ijobiy xususiyatlar asta sekin shakllana boshlaydi.Ijtimoiy pedagog nafaqat o'smir bilan balki oilasi bilan ham ish olib borishi lozimdir. Oilaviy muhit, oila a'zolarining bir -biriga munosabati o'smirga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillardir. Deviant xulq-atvorga og'ishish ko'kroq xollarda otasi yoki onasi yo'q o'smirlarda ko'proq kuzatiladi. Bunday bolalar yetim bolalar hisoblanadi. Ularda hayotga muhabbat ota onasi bor bolalaraga nisbatan kamroq bo'ladi. Chunki hayot tashvishlari va yaqin insonini ko'rolmaslik deviant xulqni shakllanishiga zamin yaratadi. O'smir bunday yo'lga kirib qolmasligi uchun məktəbda turli yo'sinda profilaktik ishlar olib borilib turishi kerak.Bunday holatlarni oldini olish vazifasini esa ijtimoiy -pedagogik realibilitatsiya markazlari bajaradilar.

Ta'lim muassalarida ijtimoiy pedagogik realibilitatsiya qarovsiz bolalar va xarakterida turli o'zgarishlar kuzatilayotgan o'smirlarga nisbatan oilaviy va məktəb repressiyalarini oldini olishga, nizoli vaziyatlar,muammolarni hal qilishga shuningdek ularni o'quv faoliyatining sub'ekti sifatida tiklashga qaratiladi.

Adabiyotlar:

1. Giyohvandlik profilaktikasi bo'yicha uslubiy qo'llanma-T:Abu Ali ibn Sino nomoidagi tibbiyot nashriyoti,2003y.
2. M.U.Xamidova. Maxsus Pedagogika, o'quv qo'llanma-Toshkent "NIF MISH"2020.
3. Nodira Egamberdiyeva: "Ijtimoiy Pedagogika" Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent-2009.
4. To'laganova G.Q -Tarbiyasi qiyin o'smirlar.T: "Univrsitet"nashriyoti,2005.